



**IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ**

2021 y “ 03 ”“ 02 ”

Nº 4/1-F

Namangan sh.

**Viloyat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh
boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini
yanada oshirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 27-noyabrdagi PF-5729-son Farmoni, vazirlikning 2021-yil 5-yanvardagi 1/1-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash, shuningdek, bosh boshqarma va shahar va tumanlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2021-2022 -yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha odob-axloq komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiya nizomi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi e’tiborga olinsin.

2. Bosh boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Boshqarmaning barcha bo‘lim boshliqlari shahar va tumanlar bo‘limlari tomonidan bosh boshqarma faoliyati doirasida 2021-2022 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturining har bir bandi bo‘yicha maqsadlarga erishishda samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqib viloyat va tumanlar (shahar) idoralararo komissiyasi bilan kelishish uchun kiritilsin.

4. Boshqarma boshlig‘i va o‘rinbosarlari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturi tegishli bo‘limlar tomonidan o‘z vaqtida va sifatlari bajarilishini ta’minlansin.

5. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari, barcha xodimlar va hududiy shahar va tumanlar bo‘limlari xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo‘yicha qat’iy nazorat o‘rnatsinlar.

6. Axborot texnologiyalari va xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis (A.Nurmatov) ushbu buyruqni bosh boshqarmaning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.


7. Devonxona (A.Baybabayeva) ushbu buyruqni bosh boshqarma xodimlari, shahar va tumanlar bo‘limlariga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Xodimlar bilan ishlash va maxsus ishlar bo‘limi (D.Xamidov), bosh yuriskonsult (S.Xudoyberganov) buyruq bilan belgilangan vazifalar ijrosini qat’iy nazoratga olsin.

9. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

**Bosh boshqarma boshlig‘ining
birinchi o‘rinbosari**

M.Abdullaev



Iqtisodiy taraqqiyot va
kambag‘allikni qisqartirish bosh
boshqarmasining
2021 yil “03” 02 dagi
7/1-F-son buyrug‘iga 1-ilova

**Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh
boshqarmasida korrupsiyaga
qarshi kurashish bo‘yicha komissiya
TARKIBI**

1	Abdullayev Muzaffar Abdug‘aniyevich	-	Bosh bosqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2	Haydarov Muhammad Abduxakimovich	-	Bosh bosqarma boshlig‘ining o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
3	Abdug‘aniyev Ilxomjon Burxanitdinovich	-	Bosh bosqarma boshlig‘ining o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
4	Xamidov Dilmurod Adxamjon o‘g‘li	-	Xodimlar bilan ishslash va maxsus ishlar bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
5	Abdullayev Rustam Kamalovich	-	Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va tahlil qilish yig‘ma bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
6	Jo‘rayev Oybek Baxtiyorovich	-	Hududiy sanoatni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
7	Turg‘unov Ilyos Ilxomjonovich	-	Investitsiya dasturlarini shakllantirish, tahlil qilish va infratuzilmani rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
8	Nurmatov Abdulbosit Abdulboqi o‘g‘li	-	Axborot texnologiyalari va xavfsizligi bo‘yicha bosh mutaxassisi, komissiya a’zosi
9	O‘jaboyev Abdurashid Abdumatalovich	-	Bosh bosqarma bosh buxgalteriyasi, komissiya a’zosi
10	Baybabayeva Adashxon Qutfitdinovna	-	Devonxona bosh mutaxassisi, komissiya a’zosi
11	Xudoyberganov Sanjar Sodiqjanovich	-	Bosh yuriskonsult, komissiya kotibi